

O'ZBEKISTON AMALIY SAN'ATI TA'LIMINING USLUBIY-NAZARIY ASOSLARI**Nuridinova Guzal Akmalovna**

Respublika ixtisoslashtirilgan dizayn maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston amaliy san'ati ta'limi tizimining uslubiy-nazariy asoslari yoritilgan. An'anaviy hunarmandchilik maktablarining tarixiy tajribasi, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va milliy-amaliy san'atni o'qitishning innovatsion texnologiyalari tahlil etilgan. Amaliy san'at turlarining (zargarlik, kulolchilik, naqqoshlik, toqimachilik va gilamdo'zlik) o'quv jarayonidagi o'rni, kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli, integrativ va loyiha-amaliy yondashuvlar mazmuni ochib berilgan.

Ka'lit so'zlari: San'at, hunarmandchilik, dizayn ta'limi, estetik tarbiya, amaliy mashg'ulotlar, ta'lim texnologiyalari, innovatsion metodlar.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ ПРИКЛАДНОМУ ИСКУССТВУ УЗБЕКИСТАНА**Нуридинова Гузал Акмаловна**

Республиканская специализированная школа дизайна

Аннотация: В данной статье раскрываются методологические и теоретические основы системы обучения прикладному искусству Узбекистана. Анализируется исторический опыт традиционных школ ремесленничества, современные педагогические подходы и инновационные технологии преподавания национального прикладного искусства. Раскрывается роль видов прикладного искусства (ювелирное дело, гончарство, декоративная роспись, ткачество и ковроткачество) в учебном процессе, содержание компетентностно-ориентированной модели образования, а также интегративные и проектно-практические подходы.

Ключевые слова: искусство, ремесленничество, дизайн-образование, эстетическое воспитание, практические занятия, образовательные технологии, инновационные методы.

METHODOLOGICAL AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF HANDICRAFT ART EDUCATION IN UZBEKISTAN**Nuridinova Guzal Akmalovna**

Republican specialized design school

Annotation: This article highlights the methodological and theoretical foundations of the education system of applied (handicraft) art in Uzbekistan. It analyzes the historical experience of traditional craft schools, modern pedagogical approaches, and innovative technologies for teaching national applied art. The study reveals the role of various types of applied arts (jewelry-making, pottery, decorative painting, weaving and carpet weaving) in the educational process, the essence of the competence-based education model, as well as integrative and project-based practical approaches.

Keywords: art, craftsmanship, design education, aesthetic upbringing, practical training, educational technologies, innovative methods.



O'zbekiston amaliy san'ati - xalqimiz ijodiy tafakkuri, ma'naviy qadriyatlari va ko'p asrlik an'alarining yorqin ifodasidir. Mamlakatimizda amaliy san'at turlarini saqlash, rivojlantirish va zamonaviy shart-sharoitlarga mos ravishda ta'lim tizimiga joriy etish dolzarb masala hisoblanadi. Amaliy san'at ta'limi nafaqat ijodiy kompetensiyalarni, balki milliy o'zlikni anglash, estetik did, tafakkur hamda mezonli baholash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

XVII asrga kelib O'rta Osiyoda avj olgan o'zaro feodal nizo va urushlar Eronning Xivaga qilgan hujmi va boshqalar arxitektura va badiiy hunarmandchilikka salbiy ta'sir kursatdi. Kupgina musavvir va hunarmandlar Hindistonga, Boburiylar saroyiga ketishga majbur bo'ldilar. XVIII asr oxirlariga kelib me'morchilik va amaliy bezak san'ati rivojlanib boshladi. Saroy qurilishlarida xalq me'morchiligi ompozitsiya uslublaridan foydalanib, ichkari hovli, hovuz, ko'p ustunli ayvon, sinchli imoratlar qurila boshlandi. XVIII-XIX asrlarda binolarning ayniqsa ichki qismini qoshni, tosh, ganch va yog'och o'ymakorligi bilan bezatildi. Bulardan misol qilib Xivadagi Pahlavon Mxamud maqbarasini, Qo'qondagi Daxman shoxon asar – atiqalrini keltirishimiz mumkin. Buxoradagi Chorminor [1].

Amaliy san'at ta'limi nafaqat ijodiy kompetensiyalarni, balki milliy o'zlikni anglash, estetik did, tafak. Bu an'anaviy tizim amaliy ko'nikmalarni to'g'ridan-to'g'ri usta tajribasidan o'rganish, individual ijodiy uslubni shakllantirish va material bilan ishlash madaniyatini egallashni nazarda tutadi.

Zamonaviy amaliy san'at (dizayn, hunarmandchilik, dekorativ-qo'llanma san'at) ta'lim sohasida keng qo'llanilayotgan asosiy nazariy yondashuvlar hakida ma'lumotlar:

Loyihalashtirishga asoslangan ta'lim. Ijodiy loyihalar, bo'lajak dizayn buyumlari, kolleksiyalar, maketlar, prototiplar tayyorlash orqali o'rganish. Talabalar material tanlash, funksiya, estetika va texnologiyani uyg'un holda qo'llashni amalda o'zlashtirish ularning professionallik bilan ish tutgan jarayonida loyixani to'g'ri tanlash.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv. O'quv dasturi bilimdan ko'ra amaliy ko'nikma va salohiyatni oshirishga qaratilgan. Kompyuter grafikasi, materiallar bilan ishlash, milliy naqshlar qonuniyatlari, kompozitsiya, marketing kabi kompetensiyalar belgilanadi [2].

Inklyuziv va shaxsiylashgan o'qitish. Har bir o'quvchining qobiliyati, qiziqishi va tempini hisobga olgan holda individual ta'lim trayektoriyalarini yaratish. Amaliy san'atda - shaxsiy uslub, individual ijod bo'yicha maslahatlar, turli qobiliyat darajasiga mos topshiriqlar.

Amaliy san'at ta'limida quyidagi yo'nalishlar alohida ahamiyatga ega:

Kulolchilik - shakl, rang va ornament qonunlarini o'rgatadi. Kulolchilik mahsulotlari tayyorlanadi. Loy qancha ko'p pishitilsa, sopolning sifati shuncha yaxshi bo'ladi. Kulolchilikda asosiy qurol kulollik charxi, usta unda idishlar tayyorlaydi va ularga shakl beradi. Tayyorlangan idishlar quritilib, xumdonda qizdiriladi[3].

Naqqoshlik - kompozitsiya, ritm, simmetriya va rangshunoslik asoslarini rivojlantiradi. Naqshlar mazmuniga ko'ra o'simliksimon, geometrik naqshlarga, gulli girix, ramziy va boshka turlarga bo'linadi. O'simliksimon naqsh tabiatdagi barg, band, daraxt, buta guncha va boshka narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklini ma'lum konuniyatlar asosida takrorlanishidan xosil qilingan. Geometrik naqsh turlaridan biri girix bo'lib, chigal, tugun ma'nosini anglatadi.

Xandasiy naqsh - murakkab naqsh turi. U geometrik naqsh turlaridan biri bo'lib, turtburchak, uchburchak, aylana va yoylardan hamda kupburchaklardan iborat bo'ladi.

Zargarlik - yuksak aniqlik, materialga ishlov berish madaniyatini talab qiladi. Zargarlik san'atida bezak buyumlari tayyorlashda metallni eritib quyish, zarb bilan yasash, hallash (oltin va kumush suvi yuritish) bo'rtma yoki o'yilgan holda naqsh tasvirlash, bosma qoliqli kabi usullardan keng foydalaniladi. Qimmatbaho gavhar, feruza, yoqut, dur kabi toshlarga ishlov berilib, ularni yanada bejirim va ko'rkam qilib, ishlov berilgan ko'zlar qadaladi[4].



Gilamdoʻzlik va toqimachilik - anʼanaviy ornamentlar va rang gammasini oʻrganish vositasi. Gilamchilik Oʻrta Osiyo, xususan Uzbekiston hududida juda qadimdan rivojlangan (Xorazmdagi arxeologik qazishlar paytida mil. av. 1-ming yillikka mansub gilam namunasi topilgan). Gilamchilik bilan asosan ayollar shugʻullangan, naqsh (gul)lar (islamiy, girih, hayvon shakllari, turli narsalar tasviri, urugʻ tamgʻasi va boshqalar)ni esa xotirada saqlashgan. Bezaklarida yolbars va tuya izlari, olma guli, uzum zangi, tuya boyni, qalqon, usimliklar ifodalangan, ayniqsa xayvon shoxi tasviri keng tarqalgan.

Bu yoʻnalishlarning har biri talabalarning badiiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy taʼlim jarayonida quyidagi texnologiyalardan foydalanish samara beradi:

raqamli ornament yaratish dasturlari (Photoshop, Illustrator, CorelDRAW);

3D-modellashtirish: zargarlik va kulolchilik uchun;

virtual muzeylar va onlayn kolleksiyalar bilan ishlash;

master-klasslar, interaktiv darslar;

STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi[5].

Oʻzbekiston amaliy sanʼati taʼlimi — milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi. Uslubiy-nazariy asoslarni puxta ishlab chiqish, zamonaviy taʼlim texnologiyalarini joriy qilish va anʼanaviy hunarmandchilik maktablarining merosini saqlash amaliy sanʼat sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda amaliy sanʼat taʼlimi ijodiy fikrlash, milliy qadriyatlarni anglash va material bilan ishlash madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Foydalangan adabiyotlar roʻyxati

1. Raximov M. K., Zamonaviy badiiy keramikada varod anʼanalari Uzbek halqida, T., 1964;
2. Kosimov.K. Nakkoshlik. T. «Ukituvchi» 1992y.
3. Bulatov, C. S., & Jabborov, R. R. (2010). Falsafiy va psixologik tasviriyl san'at asarlarini tahlil qilish (monografiya). Fan va texnologiya nashriyoti.
4. Jabborov, R. (2019). Talabalarga asoslarni oʻrgatish orqali tasviriyl san'at ko'nikmalarini shakllantirish.
5. Bulatov S.S. Uzbek xalk amaliy-bezak san'ati. Ukuv uslubiyl qo'llanma. T. 1991y

